

Andijon davlat pedagogika institutida talaba-yoshlar o'rtasida
“Quvnoqlar va zukkolar” tanlovini o'tkazish bo'yicha
NIZOM

I. Umumiy qoidalar

Ushbu tanlov keyingi o'rinlarda (ko'rik-tanlov) deb yuritiladi. Shuningdek ushbu ko'rik-tanlovni o'tkazish bo'yicha barcha tartib qoidalarini belgilaydi. Ushbu nizomda ko'rik-tanlovni o'tkazish tartibiga, bajariladigan shartlarga, reglament va boshqa masalalarga izoh berib o'tiladi. Qo'rik-tanlovni o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan nizom ko'rik-tanlovning huquqiy-meyoriy asosi hisoblanadi. Ushbu nizom tartib-qoidalarini barcha ishtirokchilar uchun amal qiladi.

II. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

1-shart “Yangi O'zbekistonda – yangi talabalar” - shiori ostidagi tanishtiruv sharti bo'lib, ushbu shartda barcha ko'rik-tanlov ishtirokchilari o'zlari tahsil olayotgan fakultetlardagi talabalar va yoshlar uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar, yoshlarga oid davlat siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilgan natijalar, istiqboldagi loyihalar, yoshlar bilan ishlashning yangicha mexanizmini qay tartibda talaba yoshlar hayotiga joriy etilyotgani hususida badiiy, musiqiy, yumoristik sahna ko'rinishlari, kompazitsion chiqishlar orqali to'laqonli yoritib berishlari talab etiladi.

Birinchi shartni bajarish uchun **6 daqiqa** reglament ajratiladi. **5 ballik** mezonda baholanadi.

2-shart “Biotlon” sharti bo'lib, ushbu shartda barcha jamoalardan 2 nafar ishtirokchi qatnashgan holda, hakamlar hay'atiga 2 donadan hazillarini o'qib beradilar. Barcha ishtirokchilar hazillarini o'qib bo'lgach, hakamlar hay'ati qaroriga binoan kulgili hazil qila olmagan (*yoki o'rinsiz hazil qilgan*) jamoadan bitta ishtirokchi o'yinni tark etadi. Shu tartibda shart yakunida 1 nafar ishtirokchi qolguniga qadar o'yin davom etadi.

Ushbu shartni bajarish uchun barcha jamoalarga **1 daqiqa** vaqt ajratiladi hamda hakamlar hay'ati tomonidan **0.1 ballik mezonda** baholanadi. O'yinni tark etgan jamoa nechanchi o'rinda tark etsa, shu o'rin qiymatidagi ball ularning hisobiga yoziladi.

3-shart “Talaba talaba emas” shiori ostidagi erkin mavzu sharti bo'lib, ushbu shartda barcha jamoalar bugungi kunda talaba yoshlar, jamiyatimizdagi yoshlar hayotida uchrayotgan muammoli masalalarni musiqiy, yumoristik sahna ko'rinishlari, kompazitsion chiqishlar orqali to'laqonli yoritib berishlari va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'z taklif, fikr-mulohazalarni bildirishlari talab etiladi. Ushbu shartda “Bayram muborak” mavzusini yoritib bera olishlari kerak.

3-sharni bajarish uchun **7 daqiqa** vaqt ajratiladi. **5 ballik** mezonda baholanadi.

III. Ishtirokchilar va g'oliblarni rag'batlantirish masalalari

1. **1-o'rinni** egallagan jamoaga ko'chma kubok, diplom hamda qimmatbaho sovg'alar;
2. **2-o'rinni** egallagan jamoalarga diplom va qimmatbaho sovg'alar;
3. **3-o'rinni** egallagan jamoalarga diplom va qimmatbaho sovg'alar;
4. Qolgan barcha ko'rik-tanlov ishtirokchi jamoalariga tashkilotchilar tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg'alar taqdim etiladi. Qolaversa, belgilangan o'rinlardan tashqari **“Eng quvnoq yigit”, “Eng quvnoq qiz”, “Eng yaxshi ishtirokchi”** nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar ham taqdirlanishi mumkin.

IV. Yakuniy qoidalar

- Ko'rik tanlovda ishtirok etish uchun jamoalar O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi (yetakchi nomiga) jamoaning nomi keltirilgan holda ariza bilan murojaat etadilar va fakultetdan tasdiqlangan holda boshlang'ich tashkilotga jamoa sardorining ma'lumotlari bilan birgalikda topshiradilar.
- Har bir fakultetdan faqat 1 ta jamoa ishtirok etishi mumkin.
- Ishtirokchi yigit va qizlarning kiyinish madaniyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Qoidaga amal qilmagan jamoalardan hakamlar hay'ati tomonidan jarima ball belgilanadi.
- Odob qoidalarini buzgan jamoalarga 0.5 balldan jarima qo'llaniladi.
- Belgilangan reglamentdan o'tib ketgan jamoalarga jarima ball belgilanadi.
- Hakamlar haya'tining yakuniy xulosalari muhokama qilinmaydi.
- “Million”, “Bravo”, “Dizayn” va shu kabi mashhur jamoalarning konsert dasturlaridagi materiallari (sahna ko'rinishlari)dan foydalanish taqiqlanadi. Barcha jamoalar o'zlari o'ylab topgan yumorlarini namoyish etishlari talab etiladi.
- Barcha ko'rik-tanlov ishtirokchilari ushbu nizomda belgilangan reglament va tartib qoidalariga to'la rioya etishlari, sahna madaniyati, senzura qat'iy amal etishlari shart.

Andijon davlat pedagogika institutida tashkil etilgan
“Quvnoqlar va zukkolar” tanlovini o‘tkazish
bo‘yicha hakamlar hay’atining
TARKIBI

№	F.I.SH	Ish joyi va lavozimi	Izoh
1.	Furqatbek Nodirbekov	Yoshlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi – Yoshlar yetakchisi	
2.	Muhammadzohir O‘rinboyev	Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i	
3.			
4.			
5.			

“Quvnoqlar va zukkolar” ko‘rik-tanlovining “Rektor kubogi” musobaqasi
uchun _____ fakultetining
_____ jamoasi

TARKIBI

№	F.I.SH	Kim sifatida	Fakulteti va guruhi	Telefon raqami
1.		Jamoa sardori		
2.		Jamoa a’zosi		
3.		Jamoa a’zosi		
4.		Jamoa a’zosi		
5.		Jamoa a’zosi		
6.		Jamoa a’zosi		
7.		Jamoa a’zosi		
8.		Jamoa a’zosi		
9.		Jamoa a’zosi		
10.		Jamoa a’zosi		

Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha
dekan o‘rinbosari

Fakultet koordinatori
